

ROMANLARDA REALISTK TASVIR UNSURLARI

Tatar ABDUL BASIR,

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti 2-bosqich magistri

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878079>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada badiiy adabiyotda realistik tasviri hamda ijodkorning real voqelik detallari orqali o‘z maqsadini, g‘oyasini ifoda etish mahorati husuidagi tahlillar keltiringan. Ijtimoiy hodisalarni, inson ruhiyatini, zamonaviy hayot mohiyatini anglashda yozuvchi mahorati talqin qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** realistic tasvir, badiiy adabiyot, ijodkor mahorati, badiiyb asar, detal, inson ruhiyati*

***Аннотация:** В статье анализируется реалистическое изображение в художественной литературе и способность художника выразить свою цель и идею через детали реальной действительности. Интерпретируется мастерство писателя в понимании социальных явлений, человеческой психики, сути современной жизни*

***Ключевые слова:** реалистичное изображение, вымысел, творческое мастерство, произведение искусства, деталь, человеческая психика*

***Annotation.** This article analyzes the realistic depiction in fiction and the author's ability to express his purpose and idea through the details of real reality. The writer's skill in understanding social phenomena, the human psyche, and the essence of modern life is interpreted.*

***Keywords:** realistic depiction, fiction, creative skill, work of art, detail, human psyche*

Realistik roman – hayotiy voqealar, xarakterlar va muhitni real hayotga yaqin tarzda tasvirlovchi roman turidir. Bu romanlarda yozuvchi xayoliy emas, balki hayotdan olingan obrazlar orqali jamiyat, inson psixologiyasi va kundalik muammolarni yoritadi.

Realistik romanlar jamiyatdagi mavjud muammolar, inson ruhiyati va ijtimoiy tengsizlik kabi mavzularni aniq va asosli tasvirlaydi. Bu janr o‘quvchini hayotning haqiqiy qirralari bilan tanishtirib, hayotga realistik nazar bilan qarashga undaydi.

Masalan, Lev Tolstoyning “Anna Karenina” romanida rus jamiyatidagi axloqiy me‘yorlar va shaxsiy erkinlik o‘rtasidagi ziddiyatlar aks ettirilgan bo‘lsa, Gustave Flaubertning “Madam Bovary” asarida ayol taqdiri va jamiyat bosimi muhim mavzu sifatida yoritiladi. O‘zbek adabiyotida esa “O‘tkan kunlar” romanida tarixiy va ijtimoiy masalalar realistik uslubda ko‘rsatilgan.

Umuman, realizm adabiyotning asosiy metodi sifatida jamiyat va kishilar hayotidagi urchishi va jamiyatning rivojlanishiga to‘siq bo‘lishi mumkin bo‘lgan har

qanday illatlarni tasvir etishni, binobarin, Tanqidiy realizm metodiga xos unsurlarning ham bo‘lishini taqozo etadi.

Yozuvchi badiiy talqin vositasida makon va zamonda yashayotgan inson muammolari xususida falsafiy mushohada yuritar ekan, uning hayot haqidagi mulohazalari, tabiiyki, sabab va oqibat, maqsad va mohiyatga asoslangan bo‘ladi. Mazkur jihatlar yozuvchining o‘ziga xos uslubini namoyon etadi. Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romani realistik asar sifatida yuzaga kelgan. O‘z navbatida badiiy qahramonlari ham realistik qahramon hisoblandi. Lekin unda ramziy-majoii talqin bunda personajlarning psixologiyasidagi jarayonlari ham asar mazmunini ochishda muhim o‘ringa ega. Masalan, Muhammadjon aka, Yusuf, Amir, Sodiq kabi qahramonlar talqin etilgan psixologik jarayonlarda qalb, ruh, ong kechinmalari uyg‘unlashib ketadi: “Yusuf o‘shaning (alamzadalikning) tabiatiga quloq tutdi... Shunda his qildiki, u erda dunyoga - tashqariga tomon yurish haqida shivir-shivirlar avji chiqayotgandi. Ya’ni kaos - tashqarining ta’sirida tashqariga nisbatan ichkarida paydo bo‘lgan alg‘ov-dalg‘ovlik endi xuddi o‘z egasini tishlab olgan bo‘ri bolasi kabi tashqarini ham o‘z kelbatiga o‘xshatgisi kelardi” Mazkur parchada Yusuf voqelikni ramziy-majoziy tarzda anglashi va tushunishi ko‘zga tashlanadi. Tasvir realistik uslubda berilgan, biroq, qalbidagi ilojsizlikdan tug‘ilgan armon, alam uning ruhiyatidagi keskin o‘zgarishlarga olib keldi. Natijada, u borliqni ramziy-majoziy tarzda idrok qilib, milliy xarakterini namoyon etdi.

O‘quvchi romanni o‘qish jarayonida, qahramonlar misolida inson o‘zini, yaqinini, uni o‘rab turgan atrof-olamni ko‘rgandek bo‘ladi. Borgan sari tasavvurlar tiniqlashib, ranglar oydinlashib teran ma’no kasb etadi. Badiiy matn tahlili orqali yozuvchi konsepsiyasining estetik vazifasi yuzaga chiqadi. Yozuvchining estetik ideali “Muvozanat” romanida ijtimoiy-axloqiy va ma’naviy-ruhiy asosda shakllanadi va namoyon bo‘ladi.

Roman ruhiga singdirilgan mantiq – mas’ullik mantig‘i nafaqat har bir qahramon o‘zi uchun, hech bo‘lmasa yaqinlari, tug‘ishganlari uchun mas’ul degan tushuncha bolam, qo‘shnim, elim, ulusim, yurtim degan yuksak g‘oyalar sari yetaklashi yoinki Vatan - uyingning ostonasidan boshlanadi, degan purviqor fikr ham aslida har bir qahramonni alohida shaxs sifatida, yakdillikda bir millat sifatida yuksaltiradi. Shunday ekan, romanga xos realistik tasvir hayotning badiiy in’ikosi sifatida talqin etilgan har bir qahramon hayoti, orzu - intilishlari, g‘am - tashvishlari, topganlari va yo‘qotganlari turfa xil taqdiralar misolida jonlanar ekan, makon va zamon badiiy in’ikosida milliy ruhiyat aks etadi. U ham dam yaratgan har bir xarakter yaralishidan yozuvchi badiiy tafakkurida qo‘yma shakllangan va asar g‘oyasini ochib berishga xizmat qiluvchi estetik ideal sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, “Yusuf

to‘nini yelkasiga tashlagancha ohista yurib tashqariga chiqdi. Havo kechagidan ham bahoriyroq edi. Tun bo‘lishiga qaramay, osmonning qoraga moyil ko‘kimgir rangini ilg‘ash mumkin (ehtimol, “osmonning rangi ko‘k” degan fikrning soyasidir bu!), yulduzlar ham shahardagidek uzoqda emas, balki tomboshiga chiqib sakrasang bir nechtasini uzib olgudeksan. Yengil epkin hovlining etak tarafidan qiy hidini olib kelib dimoqqa urdi...“ Mazkur parchada yozuvchi voqelikni realistik usulda tasvirlar ekan, undagi gap qurilishi va fikrlash tarziga sof milliy ruh singlirib yuborgan. Bu ayniqsa, “to‘nni elkasiga tashlab tashqariga chiqish”, “tomboshiga chiqib sakrash” jumllarida sof milliylik tafakkur tarzi mavjud. Chunki o‘zbek milliy uylari pastroq bo‘ladi va atrofiga tut, o‘rik, jiyda, olma kabi daraxtlar ekaligi ularning mevani olish uchun tomga chiqish kerak bo‘lgan. Shu holatdan foydalanib, yulduzlarni ham uzib olgudek degan xulosa kelinyapti. Shuningdek, bu yerda ruhiy parallelizm ham qo‘llangan. Bu usul “Havo kechagidan ham bahoriyroq edi. Tun bo‘lishiga qaramay, osmonning qoraga moyil ko‘kimgir rangini ilg‘ash mumkin (ehtimol, “osmonning rangi ko‘k” degan fikrning soyasidir bu!), yulduzlar ham shahardagidek uzoqda emas”, degan gaplarda aniq bo‘rtib turibdi. Mazkur usul ham personaj qalbidagi vataniy tuyg‘uni, qadrdon uyini sog‘inishi ifodalaydi. Yozuvchi shu yerda vatan so‘zi ishlatmasdan vatan mavzusini ham kiritib ketganki, bu parchadagi mazmuniy qatlamning teranligining ifodasi hisoblanadi.

Romanda qator ramzlar mavjud bo‘lib, ular ko‘pincha matn ostiga singdirib yuborilgan: “Muhammadjon aka dabdurustdan qo‘rqib ketdi, u qushcha qulab tushadi, deb o‘ylab, qulochini ochdiki, tutib qolay deb... Lekin yo‘q! Qushning qanotlari erkin havo ta‘mini his qilgani hamon avvaliga ishtiyoqsiz besh-olti “pir-pir” etib, so‘ng dadil qanot silkib ko‘kka ko‘tarildi“. Lavhada qafasga o‘rgangan qushning ozodlikni his qilish jarayoni qanchalar ishonarli tasvirlangan bo‘lsa, tagmatndagi ishora - qullik iskanjasidagi insonning ozodlikka ko‘nikishi hamda bu erk ulug‘ niyatlar, ulkan ishlar ramzida berilgan bo‘lsa, ”tobora ko‘tarilib kelayotgan quyosh nurlari” yorug‘lik, niyatga yetkazadigan nurafshon kunlarning yaqinligini keltiruvchi mujda sifatida qabul qilinadi.

Yozuvchi olam va odam xususidagi mushohadakor fikrlar, har bir ziyoli tiynatidagi evrilishlar, jamiyat maqsadining kelajak sari talpinishigacha zukkolik bilan badiiy qamrab oladi. Ba‘zan rumiyona fikrlari bilan islom dini falsafasiga xos shaxs qalbida alohida mehrni uyg‘otadi. Tasvir usuli va bayondagi bunday o‘ziga xoslik romandagi personajlar ichki olami va muallif psixologiyasidagi voqelikni badiiy idrok etish, sintez qilish va yakunda qat‘iy xulosa sifatida o‘quvchiga yetkazish jarayonining mukammallashuviga xizmat qiladi. Aynan shu mukammalashish zamirida muallif, personaj va o‘quvchi psixologiyasining

yaxlitlashuvi yuz beradi. Natijada asarning ruhiy-axloqiy, ijtimoiy-falsafiy mohiyati namoyon bo‘ladi.

Psixologik tahlil muammosini o‘zbek romanlari misolida tahlil qilgan munaqqid H.Umurov ta’riflaganidek: “inson ruhiyatining tahlili, uni chuqur tushunish va tasvirlash mahorati - adabiyotning tub mohiyatini belgilovchi xususiyatlaridan biri” hisoblanadi. Buni romandagi inson qalbining nozik jilolari: fe’l-atvori, ruhiyati, ko‘ngil talpinishlari badiiy talqin etilganida kuzatish mumkin. Asarda har bir personaj (Yusuf, Amir, cho‘pon, Sodiq, Ergash, Zahro, Oygul) o‘z ziddiyatlari - botinan va zohiran kurashlari orqali talqin etilganki, asar qahramonlarini ijtimoiylik mahsuli deb qarashdan ko‘ra, ma’naviy-axloqiy mezonlardan kelib chiqib baholash romanga xos xususiyat -voqea-hodisalar epik tasviriga nisbatan inson mukammalroq badiiy in’ikos qilinganini bildiradi.

Hayot haqiqatini badiiy mahorat bilan uyg‘unlashtirish va uni o‘ziga xos uslub bilan ifoda etish ijodkordan ayricha mahorat talab qiladi. Biz asarlarni tahlil qilish jarayonida relistik metodga xos bo‘lgan qator belgilarni guvohi bo‘ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
2. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
3. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.
4. Omanova, M. (2024). Importance of voice in expressive reading. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
5. Dilafruz, Kalandarova. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany." *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
6. Kadirova M.H. "The need for improving the methodology of teaching folklore in distance learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan, <https://inlibrary.uz/index.php/crjps/article/view/17610>
7. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.
8. Burkhanova, F. "The Wisdom In The Works Of Alisher Navoi." *Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation* 32.3: 32467-32472.